

Jizzakh State Pedagogical Institute



**Journal of Preschool
Education**

*The faculty of pre-school
education*

INGLIZ TILINI O`QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

Muhammadova Sevinchoy

Qulboyeva Malika

JDPU talabalari

Annotatsiya: Hozirgi vaqtda ingliz tilini o`rganishga va o`qitishga bo`lgan e`tibor jadal sur`atlarda oshib bormoqda. SHuningdek, maktabgacha ta`lim ta.shkilotlarida tarbiyalanuvchilarga ingliz tilini qiziqarli tarzda o`rgatishda turli xil innovatsion metodlardan, texnik vositalardan, tarbiyalanuvchilarning diqqatini jalb qiluvchi –interfaol o`yinlardan o`yinlardan foydalanish talab qilinmoqda. Mashg`ulot davomida bunday o`yinlardan foydalanish tarbiyalanuvchilarning ingliz tilini o`rganishga bo`lgan ishtiyoqini yanada oshiradi. Ushbu maqolada ingliz tilini maktabgacha yoshdagi bolalarga o`yinlar orqali o`rgatish usullari yoritib o`tilgan.

Kalit so`zlar:ingliz tili, interfaol o`yinlar, back to back o`yini, last Man Standing o`yini ,tezkor o`yinlar, maktabgacha yoshdagi bolalar

Bugungi kunda ingliz tili o`rganish zamon talabi ekanligi va muhim ahamiyat kasb etayotganligi sabali maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ham o`rgatilmogda. Mashg`ulotlar o`ziga xos usullar, qiziqarli o`yinlar yordamida tashkil etilmasa tarbiyalanuvchilarga ingliz tilini o`rgatish ,ularni mashg`ulotga jalb qilish murakkab vazifaga aylanishi mumkin. Agar mashg`ulotlarda an`anaviy usullardan kechib, o`yinlar yordamida tashkil etilsa, bu nafaqat mashg`ulot sifatini ta`minlaydi, shuningdek, zerikishini oldini olib, passiv tarbiyalanuvchilarni ham mashg`ulotlarda ishtirok etishga jalb qiladi.

Ingliz tilini o`rgatishda turli qiziqarli o`yinlar mavjud. Bolalarga ingliz tilini o`rgatishda shunday o`yinlardan foydalanish kerakki, mashg`ulotlarda barcha tarbiyalanuvchilar qiziqish bilan ishtirok etishini ta`minlash zarur. maktabgacha ta`lim tarbiyalanuvchilari bilan mashg`ulotlarni grammatik tushunchalar bilan boshlash noo`rindir. Natijada bolalarda mashg`ulotga bo`lgan qiziqishi so`nishiga olib keladi. Ular bilan hattoki salomlashish jarayonini ham noan`anaviy tarzda boshlash kerak. masalan pedagog kirishi bilan mashg`ulotni inglizcha qo`shiq bilan boshlansa, tarbiyalanuvchilar mashg`ulot davomida har bir topshiriqqa bo`lgan e`tiborini yo`qotishmaydi. hattoki ular ingliz tili darslarini intizorlik bilan kutishadigan bo`lishadi. Albatta bularning barchasini pedagog tashkillashtirishi lozim va bu uning zimmasida hisoblanadi. Shunday ekan, ingliz tilini o`rgatishda quyidagi o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq

Last MAN Standing

Bu o`yin tezkor o`yin hisoblanadi. Lekin bolalarga o`ylash uchun biroz vaqt beriladi. Bu o`yin birgalikda o`rganishga undaydi, ya`ni boshqa o`quvchilar so`zlayotganda qolgan o`quvchilar o`zlari so`z o`ylayotgan bo`lishadi. O`yinni o`ynash uchun sizga koptokchalar beriladi. Va hamma bolalar doira shaklida turib olishlari shart. Birorta mavzu tanlashingiz kerak bo`ladi. Things found in a kitchen (oshxonada topiladigan buyumlar), food, profession va hokazo.

Biror bolaga to`pni uloqtirish orqali o`yin boshlanadi. o`sha bola mavzuga doir biror iglizcha so`z aytadi va to`pni keying o`quvchiga uloqtiradi. To`pni qabul qilgan har bir o`quvchi shu mavzuga doir biror so`z aytishi kerak bo`ladi. Agar ular aytilgan so`zni qayta aytishsa yoki bir necha soniya ichida so`z topa olmasa, ular o`yindan chiqadi va o`yinni o`tirgan holda kuzatadi.

Pictionary

Ko`pchilik ingliz tilida so`zlashuvchilar Pictionary, rasm chizish o`yini bilan yaxshi tanish hisoblanadi. Rasm chizish maqsadi uchun oddiy doska yoki magnit doskadan foydalanish mumkin. Guruhni ikkiga bo`lib olinadi va har bir jamoa uchun doskaning bir tomonida jadval chiziladi. jamoalarning ballarini shu yerga yozib boriladi. A jamoadan bir kishi chiqadi. Va ko`pgina teskari o`girilgan so`zlardan bittasini tanlaydi. Va shu so`zni doskaga chizib beradi. Va boshqalar topishi kerak bo`ladi. So`zni birinchi bo`lib to`g`ri topgan jamoaga ball beriladi. 10 ball olgan jamoa g`olib hisoblanadi.

Charades

Charades o`yini Pictionary o`yiniga o`xshash lekin asosiy farqi bunda so`z ifodalash uchun rasm emas harakatlardan foydalaniladi. Bu o`yin o`quvchilar sust, zerikkan va uyqusi kelgan vaqtlarda juda qo`l keladi. Bolalar tanlashi uchun bir necha to`rtburchak qirqilgan qog`ozlarga so`zlar yoziladi. Guruhni ikki jamoaga bo`lib olib, har bir jamoadan bir bola so`z yozilgan qog`ozni tanlaydi va harakat bilan ifodalab beradi. Jamoadagilar uch daqiqa ichida o`sha so`zni topishi kerak bo`ladi. Har bir to`g`ri javob uchun bir ball beriladi, 10 ball to`plagan jamoa g`olib hisoblanadi.

Back to back

Bu o`yin bola xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o`stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qo`yib chiqamiz. Ikkita bolani doskaga chiqaramiz va ularning birovidan rasmlarni tanlab olishini so`raymiz. Ikkinchi o`quvchiga ko`rsatmasdan, bolalarni ikkita bir-biriga teskari stulga o`tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulida und anima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi bola eshitgan bola so`zlarni qog`ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa bola g`olib bo`ladi.

Xulosa qilib aytganda, biz yuqoridagi o`yinlar yordamida ingliz tili darslarini maktabgacha yoshdagi bolalarga o`rgatishimizda, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlari va bilim darajasiga qarab o`zgartirishimiz mumkin. Yuqorida keltirilgan o`yinlarning maqsadi bolalarning tezkorlik, ziyraklik, izlanuvchanlik qobiliyatlarini o`stirish, xotirasini kuchaytirish, yangi so`zlarni esda saqlash va eng asosiysi mashg`ulotni mazmunli tashkil etish hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ta`lim tizimining barcha bosqichlarida ingliz tilini uzluksiz o`rganishni tashkil qilish, zamonaviy o`quv-uslubiy materiallar bilan ta`minlash, zamonaviy pedagogik va axborot – kommunikatsiyalari bilan mashg`ulotlarni tashkil etish maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim olishga bo`lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bekmurodova U.B „Ingliz tilini o`qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish” Toshkent -2012- yil.3
2. Xoshimov O` Yoqubov I Ingliz tilini o`qitish metodikasi T., -2003
3. Iriskulov A.T va boshqalar Kids' English pupil's book 2-sinf-Toshkent-O`zbekiston;2014
4. „Chet tilini o`qitish metodikasi”- Jamol Jalolov